

*(Vazirlik, idora va
tashkilot blankasida)*

**Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani XTBga qarashli 38-umumiy o'rta ta'lim
maktabi fizika fani o'qituvchisi Turopova Sharifa Abdullajon qiziga**

TAVSIYANOMA

Turopova Sharifa Abdullajon qiziga – 1995-yil 18-mayda Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanida tug'ilgan, ma'lumoti oliy. 2016-yili Toshkent davlat pedagogika universitetini tamomlagan. Mutaxassisligi – fizika fani o'qituvchisi. O'zbekiston Milliy tiklanish partiyasi a'zosi.

Sh.Turopova o'z ish faoliyatini, 2017-yildan Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 50-umumiy o'rta ta'lim maktabida yoshlar yetakchisi lavozimidan boshlagan.

2020-yil 16-maydan hozirgi vaqtgacha Mirzaobod tumanidagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Sh.Turopova pedagogika sohasini ko'pqirrali ekanligini isbotlab kelmoqda. O'z jamoasi orasida ishchanligi, sofdil, odil, ishbilarmon, tadbirkor va vijdonli xodimligi bilan ajralib turadi. Xamkasblari orasida o'z mavqeyiga, mehnat jamoasi o'rtasida o'z obro'-e'tiboriga ega. U o'z muassasasida va o'zi istiqomat qilayotgan mahallada o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyati va uning amaliy samaralarini targ'ib qiladi. Fidoiy va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va mahalla ahli o'rtasida hurmat qozongan. 2017-yil O'zbekiston Respublikasi yoshlar ittifoqi tomonidan "Fidoiy yoshlar otryadi" nominatsiyasi sovrini bilan taqdirlangan.

Sh.Turopova mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh etish, yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish, barcha uchun sifatli ta'limni kafolatlash kabi muhim jarayonlarda faol ishtirok etib, yurtimizda yuksak intellektual salohiyatni yaratish hamda huquqiy demokratik davlat qurish yo'nalishidagi davlat dasturlarini amalga oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Sh.Turopova O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlash kursiga tavsiya etamiz.

(Tavsiyanomada shu band albatta bo'lishi shart)

**Mirzaobod tumani
Xalq ta'limi boshqarmasi mudiri:**

J.M.Shavkatov